

Date: 19th June-2026

**FITRAT PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA ZAMONAVIY
O'QITUVCHINING MA'NAVIY-MA'RIFIY KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH**

Rasulova Nargiza Murodilloyevna
Xalqaro Nordik Universiteti 1-kurs magistri

Annotatsiya: Mazkur tezisda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari asosida zamonaviy o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Fitrat asarlarida ilgari surilgan milliy qadriyatlar, ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, axloqiy tarbiya va shaxs kamoloti haqidagi g'oyalar bugungi ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy va ma'naviy salohiyatini oshirishning muhim omili sifatida yoritiladi. Tadqiqotda Fitrat merosidan foydalanish orqali o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo'llari hamda innovatsion pedagogik imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Fitrat, pedagogik qarashlar, ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya, zamonaviy o'qituvchi, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, pedagogik mahorat, innovatsion ta'lim.

Kirish

Ta'lim tizimida nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglaydigan o'qituvchi shaxsiyatini ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini hosil qilish muhimdir. Chunki pedagog shaxsiy namunasi, dunyoqarashi, axloqiy fazilatlar va ma'naviy pozitsiyasi orqali o'quvchi shaxsining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, milliy pedagogik merosimizni chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

Abdurauf Fitrat o'zining pedagogik, publitsistik va ilmiy asarlarida xalqni ma'rifat orqali taraqqiyotga olib chiqish, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, o'qituvchi shaxsining jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish kabi g'oyalarni ilgari surgan. U ilm-fan, tarbiya va ma'naviyatni millat ravnaqining asosiy omili deb hisoblagan. Fitratning ushbu qarashlari bugungi kunda zamonaviy o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli Fitrat pedagogik merosini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rganish hamda undan pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimida samarali foydalanish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Hozirgi davrda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagoglardan nafaqat chuqur kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki yuksak ma'naviy-ma'rifiy



Date: 19th June-2026

kompetensiyalarni ham talab etmoqda. Biroq amaliyotda ayrim o'qituvchilarda milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ularda vatanparvarlik, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish borasida muayyan muammolar kuzatilmoqda.

Shu bois zamonaviy o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishda milliy pedagogik merosga tayanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu borada jadid ma'rifatparvarlari, xususan Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Fitrat ta'lim va tarbiyani millat taraqqiyotining asosiy vositasi deb hisoblagan hamda jamiyat ravnaqi, avvalo, o'qituvchi va tarbiyachilarning saviyasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlagan.

Tadqiqot maqsadi: tadqiqotning asosiy maqsadi Fitratning pedagogik qarashlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish hamda ular asosida zamonaviy o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Fitratning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish;
- Fitrat asarlarida aks etgan ma'naviy-axloqiy g'oyalarni tahlil qilish;
- Zamonaviy o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarini aniqlash;
- Fitrat merosini pedagogik faoliyatga integratsiya qilish imkoniyatlarini asoslash;
- Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni tavsiya etish.

Fitrat pedagogik qarashlarining nazariy asoslari

Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri sifatida ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, millat taraqqiyotining eng muhim omili ilm-fan va ma'rifatdir. Fitrat jaholat, mutaassiblik va savodsizlikni jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida baholagan.

Mutafakkirning pedagogik qarashlarida quyidagi tamoyillar ustuvor o'rin egallaydi:

1. Ma'rifat orqali taraqqiyotga erishish. Fitrat xalqning taraqqiyoti zamonaviy bilimlarni egallash va ilm-fanga tayanish orqali amalga oshishini ta'kidlaydi. Uning nazarida maktab va o'qituvchi jamiyatni yangilovchi asosiy kuch hisoblanadi.
2. Milliy o'zlikni anglash. Fitrat yosh avlodda milliy g'urur, milliy qadriyatlarga hurmat va tarixiy xotirani shakllantirish zarurligini ilgari surgan. Bu g'oyalar bugungi kunda ham pedagoglarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Axloqiy barkamollik. Fitrat inson kamolotini faqat bilim bilan emas, balki yuksak axloq, vijdon, mas'uliyat va odob bilan bog'laydi. U tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ustuvor vazifa sifatida qaraydi.
4. O'qituvchi shaxsining namunaliligi. Fitrat nazarida pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyatning ma'naviy yetakchisi hamdir. O'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, nutqi, muomalasi va hayotiy pozitsiyasi yoshlar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega.



Date: 19th June-2026

Demak, Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablariga hamohang bo'lib, o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun mustahkam nazariy asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasi mohiyati

Ta'lim tizimining bugungi rivojlanish bosqichida o'qituvchi faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarni ma'naviy, axloqiy va fuqarolik jihatdan kamol toptirishni ham nazarda tutadi. Shu sababli pedagogning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasi uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya- bu o'qituvchining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglashi, ularga amal qilishi, tarbiyaviy faoliyatda samarali qo'llay olishi hamda o'quvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuidir.

Mazkur kompetensiya pedagogning kasbiy faoliyatida ma'naviy muhit yaratish, sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish va ularda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish imkonini beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili asosida zamonaviy o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

Motivatsion-qadriyatli komponent. Ushbu komponent o'qituvchining kasbiga sadoqati, milliy qadriyatlarga hurmati, vatanparvarlik tuyg'usi hamda ma'naviy kamolotga intilishi bilan tavsiflanadi. Pedagogning ichki e'tiqodi va qadriyatlari uning tarbiyaviy faoliyati samaradorligini belgilaydi.

Kognitiv komponent. Bu komponent ma'naviyat, ma'rifat, milliy g'oya, axloq, madaniyat, tarix va pedagogik merosga oid bilimlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi mazkur bilimlarni muntazam ravishda boyitib borishi zarur.

Faoliyat komponenti. Pedagogning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishi, tarbiyaviy ishlarni samarali olib borishi, innovatsion metodlardan foydalanishi va o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ushbu komponent mazmunini tashkil etadi.

Refleksiv komponent. Bu komponent o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi, o'z ustida ishlashi, kasbiy va ma'naviy rivojlanishini baholab borishi bilan bog'liqdir.

Fitrat g'oyalari va zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv uyg'unligi

Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi bilan ko'plab umumiy jihatlarga ega. Jumladan, mutafakkir tomonidan ilgari surilgan ma'rifatparvarlik, milliy ong, axloqiy poklik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bugungi ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyaning asosiy mezonlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Fitrat o'qituvchini millat kelajagini yaratuvchi kuch deb baholagan. Uning fikricha, pedagog avvalo o'zi ma'naviy yetuk, bilimdon va fidoyi bo'lishi kerak. Bu qarashlar hozirgi kunda pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablar bilan to'liq uyg'unlashadi.

Date: 19th June-2026

Shuningdek, Fitrat yoshlarni mustaqil fikrlashga, voqea-hodisalarga tanqidiy yondashishga va millat manfaatlarini himoya qilishga undagan. Mazkur yondashuv XXI asr ko'nikmalari hamda kompetensiyaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil natijalari: tahlillar shuni ko'rsatadiki, Fitrat pedagogik merosi zamonaviy o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun boy nazariy manba hisoblanadi. Uning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini pedagogik faoliyatga tatbiq etish o'qituvchilarning ma'naviy salohiyatini oshirish, tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish va yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Fitrat merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishda milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Abdurauf Fitratning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari o'qituvchilarda milliy tafakkur, ma'naviy mas'uliyat, vatanparvarlik va pedagogik fidoyilik sifatlarini shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Fitrat asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish natijasida o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish mumkin. Bunda pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy yetakchi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion metodlari

1. "Fitrat saboqlari" reflektiv tahlil metodi. Mazkur metod asosida Fitratning pedagogik va ma'rifiy asarlaridan parchalar o'qilib, ular yuzasidan tahliliy va reflektiv munozaralar tashkil etiladi.

Metodning maqsadi:

- pedagoglarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish;
- ma'naviy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish;
- tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirish.

Natijada o'qituvchilar Fitrat g'oyalarining zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini chuqur anglay boshlaydilar.

2. Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish texnologiyasi. Fitrat asarlarida uchraydigan ijtimoiy, ma'naviy va tarbiyaviy muammolar asosida pedagogik vaziyatlar yaratiladi. Masalan: "Yoshlarda kitobxonlikka qiziqish pasayib borayotgan sharoitda Fitrat qanday yechim taklif qilgan bo'lardi?"

Mazkur savol asosida guruhli muhokamalar tashkil etiladi.

Natijada:

- tanqidiy fikrlash rivojlanadi;
- pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi;
- ma'naviy-ma'rifiy muammolarga zamonaviy yondashuv vujudga keladi.

3. Keys-stadi (Case Study) texnologiyasi. Fitratning hayoti va faoliyati bilan bog'liq real tarixiy voqealar asosida pedagogik keyslar ishlab chiqiladi.

Bunday mashg'ulotlar:



Date: 19th June-2026

- tarixiy tafakkurni rivojlantiradi;
- ma'naviy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytiradi;
- pedagogik mas'uliyat hissini shakllantiradi.

4. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi. Pedagoglar tomonidan "Fitrat va zamonaviy ta'lim", "Jadidlar merosi va pedagogik innovatsiyalar", "Milliy qadriyatlar va ta'lim" kabi mavzularda loyihalar ishlab chiqiladi.

Loyiha faoliyati:

- ijodkorlikni rivojlantiradi;
- ilmiy izlanishga qiziqishni oshiradi;
- hamkorlik kompetensiyalarini shakllantiradi.

Taklif etilayotgan innovatsion model. Tadqiqot doirasida "Fitrat- Ma'naviyat - Kompetensiya" nomli innovatsion model taklif etiladi.

Model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Bilish bosqichi → Fitrat merosini o'rganish;
2. Anglash bosqichi → g'oyalarning mazmunini tahlil qilish;
3. Qabul qilish bosqichi → shaxsiy va kasbiy faoliyat bilan bog'lash;
4. Qo'llash bosqichi → pedagogik amaliyotga tatbiq etish;
5. Refleksiya bosqichi → natijalarni baholash va takomillashtirish.

Mazkur model o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Ilmiy yangilik. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta talqin qilinib, o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar va "Fitrat – Ma'naviyat – Kompetensiya" modeli ishlab chiqildi.

Fitrat pedagogik merosi asosida ishlab chiqilgan innovatsion metod va texnologiyalar o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularning amaliyotga joriy etilishi pedagoglarning kasbiy faoliyati sifatini oshirish, tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish hamda yosh avlodning ma'naviy kamolotini ta'minlashga yordam beradi.

Tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi

Tadqiqot doirasida Fitrat pedagogik qarashlari asosida zamonaviy o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilib, unda pedagoglarning boshlang'ich va yakuniy darajalari solishtirildi.

Tajriba jarayonida quyidagi yo'nalishlar asos qilib olindi:

- Fitrat pedagogik merosini o'rganish bo'yicha seminar-treninglar;
- ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan interfaol mashg'ulotlar;
- innovatsion metodlar (keys-stadi, muammoli ta'lim, refleksiya)ni qo'llash;
- mustaqil tahliliy topshiriqlarni bajarish.

Boshlang'ich holat tahlili



Date: 19th June-2026

Tajriba boshlanishida o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya darajasi diagnostik testlar va suhbatlar orqali o'rganildi. Natijalarga ko'ra:

- Fitrat pedagogik qarashlari haqida bilimlar yetarli emasligi;
- ma'naviy tarbiya metodlarini qo'llashda an'anaviy yondashuv ustunligi;
- innovatsion metodlardan foydalanish darajasi pastligi aniqlandi.

Tajriba jarayonining borishi

Shakllantiruvchi bosqichda Fitrat asarlari asosida maxsus o'quv modullar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. O'qituvchilar quyidagi faoliyatlarda ishtirok etdilar:

- Fitrat g'oyalari bo'yicha muhokama darslari;
- guruhli tahlil va refleksiya mashg'ulotlari;
- pedagogik vaziyatlarni yechish bo'yicha keys topshiriqlari;
- ma'naviy-ma'rifiy loyihalar yaratish.

Mazkur jarayon pedagoglarda mustaqil fikrlash, ma'naviy qadriyatlarga ongli yondashuv va tarbiyaviy faoliyatga ijodiy munosabatni shakllantirdi.

Natijalar tahlili. Tajriba yakunida o'tkazilgan qayta diagnostika natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Fitrat pedagogik qarashlari haqidagi bilim darajasi sezilarli oshdi;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish ko'nikmalari rivojlandi;
- innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish faollashdi;
- o'qituvchilarning refleksiv tahlil qilish qobiliyati kuchaydi.

Umuman olganda, tajriba-sinov ishlari Fitrat pedagogik merosidan foydalanish o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Fitrat pedagogik qarashlariga asoslangan yondashuv zamonaviy o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi va ularning tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Fitrat ilgari surgan ma'rifatparvarlik, milliy o'zlikni anglash, axloqiy barkamollik va o'qituvchi shaxsining jamiyatdagi yetakchilik roli haqidagi g'oyalar bugungi pedagogik talablar bilan uzviy bog'liqdir.

O'tkazilgan tahlil va tajriba-sinov ishlari Fitrat merosidan foydalanish o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Umumiy natijalar. Tadqiqot davomida quyidagi natijalarga erishildi:

- Fitratning pedagogik qarashlari tizimli ravishda tahlil qilindi;
- zamonaviy o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasi tarkibiy jihatdan yoritildi;



Date: 19th June-2026

- Fitrat g'oyalari bilan zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv o'rtasidagi uyg'unlik aniqlandi;
- innovatsion metodlar asosida kompetensiyani rivojlantirish modeli ishlab chiqildi;
- tajriba-sinov ishlari orqali taklif etilgan yondashuvning samaradorligi isbotlandi.

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar beriladi:

pedagog kadrlar tayyorlash tizimida Fitrat va boshqa jadid ma'rifatparvarlari merosini chuqur o'rganishga e'tibor qaratish;

malaka oshirish kurslarida ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyani rivojlantiruvchi maxsus modullar joriy etish;

ta'lim jarayonida interfaol va innovatsion metodlardan keng foydalanish; o'qituvchilarda reflektiv fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish;

milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish.

Fitrat pedagogik merosi zamonaviy o'qituvchini nafaqat kasbiy jihatdan, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois uning g'oyalarini ta'lim tizimiga keng tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2010.
2. Fitrat A. Hind sayyohi qissasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2008.
3. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha qaror va farmonlar. – Toshkent, 2020–2025.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
6. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.

INTERNET RESURLAR:

www.pedagoglar.uz – Pedagogik maqolalar va ilmiy materiallar bazasi.

